

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/4 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ 5/4 (3) - 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Аббасов Беҳзод Бахтиёрович

1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ
ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ
БОШЛАНИШИ 10-21

Бабалжанов Хасан Бахтиёрович

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ
ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ 22-27

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна

ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ 28-36

Rasulov Ma'murjon Foziljonovich

O'ZBEKISTONDA XALQARO SAYYONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS
OBJEKTLARINING O'RNI 37-42

Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна

А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ
ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ 43-51

Esonov Ziyodbek Yuldashevich

FARG'ONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN 52-58

Фарманова Гульнора Комилевна

ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА
АФРАСИАБЕ 59-65

Turaev Sherzod Gulboy ugli

DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN
OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH 66-71

Сотиболдиев Файратжон Отамирзаевич

ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА
ЕЧИМЛАР 72-78

Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich

ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ
ТАВСИФИ 79-90

Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна

БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН 91-95

Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли

ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН 96-102

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова

ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i> БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i> BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI	119-125
<i>Орзукулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i> ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li</i> YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ	147-155
<i>Qurbonov Ma‘murjon G‘ayrat o‘g‘li</i> ASOSIY ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i> РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ	173-188
<i>Ғойипназаров Санжар Баходирович</i> ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллаевич</i> ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196-203
<i>Қурбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир</i> ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ	204-216
<i>Asatxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li</i> YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI	217-222

Исломов Алишер Бахтиёр ўғли
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ
ТАЪМИНЛАШ 223-229

Agzatova Nargiza Garurovna
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN 230-237

Муродова Дилноза Чориевна
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ 238-245

Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING
FUNKSIYALARI 246-250

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ
ЎРНИ 251-259

Ibroximov Sarvar Mo'yudinjon o'g'li
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 260-265

Yuldashev Ibroxim To'uchiyevich
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING
MUSHTARAKLIGI 266-271

Khamdamova Sitora Safarovna
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA
XOSLIGI 272-277

Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО
ЧЕЛОВЕКА 278-283

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK
BIRLIKLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR 284-292

Qurbonova Muharram Jurabekovna
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI 293-297

Сафарова Замира Рустамовна
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК
ТАСНИФИ 298-304

<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i> THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS'	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i> ETEL LILIAN VOYNICHNING “SO’NA” ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i> TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDA LMALARNING USLUBIY QO’LLANILISHI	319-325
<i>Асадова Дилбархон</i> ЎРХОН ПАМУҚНИНГ “ҚОРА КИТОБ” РОМАНИДА “ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ” МОТИВИ	326-342
<i>Khusanov Eldor Davlat o’g’li</i> BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI	343-348

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Утемурастов Махмут Ажимурастович</i> ЖАМИЯТДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	349-355
<i>Шымбергенова Улзада</i> ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ХУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	356-362
<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i> ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	363-372
<i>Мирзаев Шухрат Шавкатович</i> КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ	373-382
<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i> “ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ”	383-392
<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i> ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	393-399

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Farrux Axmedov</i> XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH	400-409
<i>Музафарова Саодат Хайдаровна</i> ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ	410-415

<i>Xaydarova Iroda Nizomiddinovna</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ...	416-421
<i>Шукурова Нафиса Алишеровна</i> ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ	422-427
<i>Nigmanov Bori Botirovich</i> FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI	428-433
<i>Муродова Дурдона Раимжон қизи</i> БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ	434-438
<i>Axmedov Alisher Nosir o'g'li</i> ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI	439-447
<i>Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	448-452
<i>Mansurbekova Feruza Gayratovna</i> BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	453-456
<i>Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna</i> O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI	457-465
<i>Atamuratova Munira</i> O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI	466-471
<i>Нурилло Эминов</i> ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР	472-476

07.00.00-Тарих фанлари

Esonov Ziyodbek Yuldashevich

Qo'qon DPI Tarix fakulteti
Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

FARG'ONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi qoraqalpoqlar hunarmandchilik an'analari tarixi yoritilgan. Bunda asosiy e'tibor tadqiqotchilar bergan ma'lumotlar va dala materiallariga asoslanib mazkur etnosning hunarmandchilik tarmoqlarini o'ziga xos jihatlari ochib berishga qaratilgan. Bildirilgan mulohazalar boshqa mintaqa qoraqalpoqlari hunarmandchiligiga qiyoslangan holda tahlil etilgan. Qoraqalpoq etnosining xo'jalik tarixiga oid xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar. Vodiy qoraqalpoqlari, hunarmandchilik an'analari, uy-hunarmandchiligi, qamish buyumlar, bo'ya to'qish, to'qimachilik, gilamdo'zlik, olacha, yog'och buyumlar.

Эсонов Зиёдбек Юлдашевич

Старший преподаватель, PhD кафедры Истории
Исторического факультета КГПИ

ИЗ ИСТОРИИ КАРАКАЛПАКСКИХ ПРОМЫСЛОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. В данной статье освещается история каракалпакских ремесленных традиций Ферганской долины в конце XIX–начале XX века. Основное внимание уделяется выявлению уникальных сторон ремесел этого этноса на основе информации и полевых материалов, предоставленных исследователями. Комментарии анализировались в сравнении с мастерством каракалпаков других регионов. Сделаны выводы по экономической истории каракалпакского этноса.

Ключавые слова. Каракалпаки долины, ремесленные традиции, домашние промыслы, тростниковые изделия, плетеные циновки, ткачества, ковроткачество, алыча, изделия из дерева.

Esonov Ziyodbek Yuldashevich

KSPI Faculty of History
Senior lecturer of the Department of History, PhD

FROM THE HISTORY OF FERGANA VALLEY KARAKALPAK CRAFTS

Abstract. This article covers the history of Karakalpak handicrafts traditions in the Fergana valley at the end of the XIXth century and the beginning of the XXth century. The main focus is on revealing the unique aspects of the crafts of this ethnic group based on the information and field materials provided by the researchers. The comments were analyzed in comparison with the craftsmanship of the Karakalpak's of other regions. Conclusions were made regarding the economic history of the Karakalpak ethnic group.

Key words. Valley Karakalpak, craft traditions, home crafts, cane products, wicker mats, textile, carpet weaving, alacha, wood products.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N06>

Farg'ona vodiysining polietnik aholisi tarkibida qoraqalpoqlar ham muhim o'rin tutadi. Tarixiy ma'lumotlar qoraqalpoq urug'-qabilalari XVIII asr boshlariga qadar Markaziy Osiyoning Sirdaryo o'rta oqimida istiqomat qilib kelganligidan guvohlik beradi. XVIII asrda ushbu mintaqada kechgan tarixiy jarayonlar ta'sirida ularning bir qismi Farg'ona vodiysi hududiga ko'chib o'tishadi. Ushbu migratsion jarayonlar to XIX asr boshlariga qadar davom etadi [12;17–26- b].

Vodiyga ko'chib o'tgan qoraqalpoqlar, asosan, Sirdaryobo'yi qirg'oq (asosan, chap sohili) yaqinidagi yaylov, to'qayzor, ko'llar bo'yiga kelib joylashganlar.

Darhaqiqat, Farg'ona vodiysi qoraqalpoqlari orasida tarqalgan folklor ma'lumotlarda ham o'z ota-bobolarining o'tgan asrlarda Sirdaryo qirg'oq o'zani bo'ylab joylashganliklarini ta'kidlaydilar. Qoraqalpoqlarni ushbu hududlarga joylashuviga ko'p omillar, xususan xo'jalik an'analari ham ko'p ta'sir etgan. Jumladan, ularni vodiyga ko'chib o'tgunlariga qadar xo'jaligi dehqonchilik–chorvachilik–baliqchilikdan iborat kompleks xarakterga ega bo'lgan[8;463-b]. Ular xo'jalikdagi bunday xususiyat ushbu etnos vodiy hududiga ko'chib o'tganidan keyin ham kam o'zgarishlar bilan saqlanib qolgan. Ushbu kompleksli xarakterga ega xo'jalik tarkibida shubhasiz hunarmandchilik tarmog'i ham muhim o'rin tutgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vodiy qoraqalpoqlari hunarmandchilik tarmoqlarini xarakteriga ko'ra **ikki guruhga** ajratish mumkin edi. Ya'ni, dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari xom-ashyosini qayta ishlab mahsulot tayyorlovchi, asosiy xo'jalik tarmoqlariga mehnat qurollari tayyorlab berish, ularning xom-ashyosini qayta ishlash, xo'jalikdagi uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan talabni qondirish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan hunarmandchilik tarmoqlari. Xususan, bunga dehqonchilik xo'jaligida yetishtirilgan paxta tolasi va qoraqalpoqlar xo'jaligida asosiy tarmoqlardan bo'lib kelgan chorvachilik xom-ashyosini qayta ishlash bilan bog'liq tarzda vujudga kelgan *ip yigirish, jun mato to'qish, gilam, kigiz, palos tayyorlash, kiygiz bosish* kabi hunarmandchilik sohalari kiritish mumkin edi.

Ikkinchi guruh hunarmandchilik tarmoqlariga esa o'zlari yashab kelgan tabiiy-geografik hududdagi tabiiy xom-ashyo asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni misol keltirish mumkin. Chunonchi, bunga mahalliy etnik an'analar ta'sirida vujudga kelgan *qamish buyumlar va savat to'qish hamda yog'och buyumlar yasash* kabi hunarmandchilik tarmoqlarini misol keltirish mumkin. Demak, bundan ma'lum bo'ladiki vodiy qoraqalpoqlari xo'jaligida asosiy hunarmandchilik tarmoqlarini taraqqiy etib borishida ularning ko'p asrlik **xo'jalik mashg'uloti yo'nalishi** va ular o'rnashgan **tabiiy sharoit omili** yetakchi faktor sifatida rol o'ynagan. Mazkur jihatni davrga oid tarixiy ma'lumotlar va dala materiallari tasdiqlaydi. [1;18–19-b].

Lekin o'tkazilgan tadqiqotlar vodiy qoraqalpoqlari hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlanishida **uchinchi** faktor roli ham mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, qoraqalpoqlar vodiy hududiga kirib kelganlaridan so'ng, tabiiyki, vodiyning umumiy bozorida muayyan hunarmandchilik buyumlarini tayyorlaydigan etnik guruh sifatida ixtisoslashuvi sodir bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, etnik omillar qoraqalpoqlarni vodiya *“mohir bo'yrado'z”, “mohir savatchi”, “mohir paloschi-gilamdo'z”* qilib maydonga olib chiqdi. Albatta mazkur ixtisoslashuv jarayonini ham o'z omillari mavjud edi. Chunonchi, vodiya qoraqalpoqlar natural xo'jalik ishlab chiqarishi bilan xo'jalikdagi barcha ehtiyojlarini qondira olmas, o'troq aholi hunarmandlari tayyorlagan mahsulotlarga o'z buyumlarini ayriboshlashlari

zarur edi. Ikkinchidan, vodiy bozorida mavjud bo'lgan kuchli raqobat sharoitida faqat yuqori sifat bilan ishlangan mahsulotlar bilangina raqobatni yengish mumkin edi. Shu boisdan Qoraqalpoqlarning etnik an'alariga tayanib azaldan mavjud bo'lgan hunarmandchilik turlarini rivojlantira bordilar va ushbu hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, qoraqalpoqlarning e'tirof etishlaricha, ularning iqtisodiyotida charm buyumlar, ayniqsa metal buyumlar ishlab chiqarish vodiydagi boshqa etnik guruhlarga qaraganda kamroq rivij topgan. Qoraqalpoqlar bunday mahsulotlarni ko'pincha o'zbek va tojik hunarmandlaridan sotib olgan yoki shunay mahsulot tayyorlovchi hunarmandlarni o'z ovullariga mahsulot tayyorlash uchun taklif etgan. Xususan, vodiyning g'arbiy qismidagi qoraqalpoq qishloqlariga temirchi ustalar Tojikistonning Asht hududidan kelib ishlaganlar [4;1-b]. Chunki ushbu zaminda qadimdan tabiiy konlarga asoslangan temirchilik hunarmandchiligi rivojlanib kelgan edi.

E'tiborli tomoni, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm qoraqalpoqlari hunarmandchiligi xarakterida ham vodiy qoraqalpoqlari hunarmandchiligi bilan ko'plab o'xshash jihatlar mavjud edi. Ya'ni Xorazm qoraqalpoqlari hunarmandchiligi tarkibida ham yung tolali to'qimachilik, bo'yrado'zlik tarmoqlari rivoj topganligini guvohi bo'lamiz. Bunday o'xshashlikni Zarafshon vohasi qoraqalpoqlari hunarmandchiligida ham kuzatishimiz mumkin [3;98-b]. Mintaqadagi qoraqalpoqlar hunarmandchiligida bunday umumiy jihatlar mavjud bo'lsada, biroq ba'zi o'ziga xos xususiyatlar ham uchraydi. Vodiy qoraqalpoqlarida, xuddi Xorazmda bo'lgani kabi, ko'nchilik va poyafzal tikish tarmoqlarida ham rivojlanish cheklangan edi. Binobarin, mohir hunarmandlar, jumladan, temirchi, etikdo'z, kulol va zargarlar o'z o'rniga ega bo'lmagan.

Bu davrda Farg'ona vodiysida sazanchilik qisman tabiiy yo'nalishga ega bo'lib, hunarmandchilik tizimi asosan kasanachilik shaklida bo'lgan. Demak, sazan yetishtirish kichikroq miqyosda amalga oshirilgan, har bir oila tijorat maqsadlarida emas, birinchi navbatda o'z ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqargan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan aholi asosiy mashg'ulotdan bo'sh paytlarida shug'ullangan. Muayyan mahsulotni tayyorlash bilan maxsus shug'ullanuvchi hunarmand-ustalar kamchilikni tashkil etgan. Faqat ayrim buyumlar bo'yra va gilam bozor uchun tayyorlangan. To'quvchilik san'ati bilan shug'ullangan ayollar an'anaviy uy hunarmandchiligini saqlab qolishda muhim rol o'ynagan. Shunisi e'tiborga loyiqki, aksariyat o'zbek jamoalarida erkaklar bu sohada turli lavozimlarni egallagan. Qoraqalpoq dehqonchiligi sharoitida ayollar ham, erkaklar ham bo'yra to'qish bilan shug'ullangan bo'lsa, yog'ochdan yasalgan buyumlar yasash hunari asosan erkaklar bilan bog'langan. Ushbu mehnat taqsimotiga ishlab chiqarish usullari va tovarlar yoki asboblari ishlab chiqarishga qo'yiladigan o'ziga xos talablar ta'sir ko'rsatdi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, qoraquloqlar yashaydigan joylar odatda tabiiy suv zahiralari, xususan, qamishzorlari ko'p bo'lgan ko'llar yaqinida joylashgan. Bu holat turli hududlarda kuzatilishi mumkin. Jumladan, Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi, asosan, qoraqalpoqlar istiqomat qiladigan Oqtepa qishlog'i va Jo'ymishko'l qishloqlari buning yorqin namunasi. Xuddi shunday Sirdaryo havzasidagi ko'llar, Habibuva ziyoratgoh ko'li yaqinidagi Oyamovut qishlog'i, Quduq qishlog'i ham bu xususiyatning yana bir dalilidir. Namangan viloyati Pop tumanidagi Kenagas qishlog'i yaqinida G'aznoq ko'li borligi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Bu

geografik xususiyat Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi ko'plab qoraqalpoq qishloqlari joylashgan joylarda ham seziladi.

Tabiiy sharoitdagi xom-ashyodan unumli foydalanuvchi qoraqalpoqlar Farg'ona vodiysida qamishdan turli buyumlar tayyorlash bo'yicha mutaxassis hunarmand sifatida dong taratganlar. Ularning qamish buyumlar tayyorlashdagi boy tajribasi, ular tomonidan tayyorlagan mahsulotlarni yuqori sifatli bo'lishini ta'minlagan.

Qadimdan ota-bobolarimiz qamishdan to'qilgan buyumlarning muhim ijobiy xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Vodiydagi yarimo'troq va o'troq xalqlar ham Markaziy Osiyoning boshqa etnoslari kabi qamish buyumlardan ko'chma uylarni devorlarini tiklash, namni yomon o'tkazishi tufayli domiy uylar tomini yopishda ko'p foydalanilgan [13;36-b]. Qamishdan tom tepasini berkitish uchun maxsus usulda to'qiladigan "chiy" ham tayyorlangan. Issiq mavsumda uy derazalariga vaqtinchalik qamish to'sma ham o'rnatilgan. Taniqli qoraqalpoq etnografi Roza Ballievaning ta'kidlashicha, zamonaviy ko'p qavatli qoraqalpoq uylarini jihozlashda ushbu an'analardan samarali foydalanilmoqda. [7;1-b].

Milliy an'alarimizga muvofiq motam marosimlarida mayitni qabrga qo'yish uchun "qazo bo'yra" deb nomlanuvchi qamish buyumdan foydalanilgan. Ushbu to'qimaga doimo ehtiyoj bo'lgan. O'troq aholi ham bunda qoraqalpoq ustalariga murojaat qilgan. Bunday qamish to'qima maxsus usulda qamish poyasi barglari tozalanmasdan to'qilgan. Qazo bo'yra o'lchamiga ko'ra "chor gaz" 5-6 m² va 1,6 m² (se gaz) bo'lgan [6;1-b].

O'tkazilgan tadqiqotlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar tomonidan tayyorlab kelingan, lekin keyingi davrlarda unitilib borgan qamish buyumlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shunday qamish buyumlar sirasiga don solinadigan maxsus idish – bordonna misol keltirish mumkin. Uni to'qishda to'shama silindr shaklida o'rnatilishi hisobga olingan. Masalan, Namangan viloyati Jomashuy tumani Momoxon qishlog'idagi qoraqalpoqlar "bardon bo'yroni" mahorat bilan to'qiganlar. Uni hajmi anchagina katta bo'lib to'qib bo'lingach, to'qima tsilindr shaklida tekis sahnga o'rnatilgan va usti qamish to'qima bilan yopilgan. Unda bir necha tonna don saqlash mumkin bo'lib, u saqlanayotgan don uchun havoni yaxshi o'tkazishi, donga turli zararli hashoratlar, xar xil kemiruvchilar ziyon yetkaza olmasligi bois, unga o'troq, yarimo'troq etnoslar orasida talab katta bo'lgan.

Qoraqalpoq aholisi o'tmishda foydalangan o'ziga xos qamish buyumlardan yana biri – o'choqbordon bo'lib, ushbu qamish buyum P harfi shaklida o'choq yoniga to'shahga mo'ljallab to'qilgan. Uning o'lchami odatda 170x200 sm hajmida bo'lgan. Bo'yrado'zlar oshxonada foydalaniladigan yana bir jihoz ya'ni, qozon ustini yopishda ishlatiladigan "qozon bo'yra" ham to'qiganlar. Bundan ma'lum bo'ladiki, vodiy qoraqalpoqlari o'zlarining yarimo'troq turmush tarzi ehtiyojlaridan kelib chiqib xo'jalikdagi ko'plab buyumlarni o'zlarining etnik an'analari asosida qamishdan tayyorlab foydalanganlar. Bunday buyumlar esa turli ta'sirlarga bardoshli, yaxshi saqlovchi, vazni yengil va arzonligi uchun aholi turmushida keng ommalashgan.

Qoraqalpoqlar xo'jaligida baliqchilik ham yetakchi tarmoq bo'lib hisoblangan. Shu sababdan baliq ovlashda turli qamish buyumlardan foydalanish yuzaga kelgan. Masalan, qirg'oq bo'yida baliqlar uchun sun'iy to'siq – "g'azo" deb nomlanuvchi qamish to'qima tayyorlash keng tarqalgan edi. Hatto, keksalarning eslashlaricha, o'tmishda Chust yaqinidagi "iruv" urug'i vakillari qamish momig'idan kiyim tayyorlashda ham foydalanganlar. Ta'kidlash kerakki, qoraqalpoqlar qamish buyumlardan turli maqsadlarda, masalan ayrim kasalliklarni davolashda ham foydalanishgan. Keksa axborotchilarni bildirishicha, uy sahniga bo'yroni o'zi

to'shalsa, unda yalangoyoq holatda yurgan kishi yassioyoqlikdan shifo topgan. Sohil bo'yida istiqomat qilgan qoraqalpoqlar nafaqat qamish balki boshqa shunday o'simliklar, jumladan mahalliy tilda qo'g'a deb nomlanuvchi o'simlikdan maxsus ravishda uning poyalarini eshib, turli jihozlar ya'ni arqon va ayl, shuningdek uzangi to'qiganliklari to'g'risida ma'lumot beradilar.

Vodiyda Sirdaryo bo'yida joylashgan deyarli barcha qoraqalpoq qishloqlarida bo'yra to'qilsada, lekin hududdagi *Quduq, Shopo'lat, G'aznoq, Beshsari, Qozoqovul, Nayman* kabi bir qator qishloq bo'yrado'zlari o'z mahoratlari bilan tanilgan edilar. E'tiborli jihati ushbu qishloqlar aholisi ushbu an'analarni bugungi kungacha saqlab qolganlar [5;1-b].

Ilmiy adabiyotlarda bo'yra to'qish hunarmandchiligi kam yoritilgan. Farg'ona vodiysi qoraqalpoqlarining bu hunarmandchilik mashg'uloti deyarli o'rganilmagan, bunday buyum turlari kam tasniflangan, buyum to'qish texnologiyasidagi lokal jihatlar tahlilga sust tortilgan.

Axborotchilarning bildirishicha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham bo'yra to'qish texnologiyasi barcha qoraqalpoqlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lgan. Bunda avval qamish o'rib kelinib, salqinda quritilgan. Qoraqalpoq bo'yrado'zlarining ta'kidlashlaricha, bunda maxsus yasalgan "*sherdam*" deb ataluvchi "bo'yni" uzun po'lat tig'li o'roqlardan foydalanilgan. So'ng 5-6 dona qamish poyasi bir taxlam qilinib, ulardagi poya barglari 2 ta "*katta kaltakcho'p*"ni ayri tarzida tutgan holda urib barglardan tozalangan. Kaltakcho'plar yulg'un butasidan 50-60 sm uzunlikda maxsus tayyorlangan. Tozalangan qamish poyasi "*yorg'u*" nomli maxsus bo'yrado'zlar tig'i bilan yorilgan. Yorg'u uzunligi 10-15 sm uzunlikdagi ichi kavak yog'och bo'lagi bo'lib, o'rtasiga 3-4 smli metall tig' o'rnatilgan. Yorg'u qamish poyasi sirtidan yurgizilganda u poyani ikki qismga yorib o'tgan. So'ng yorilgan qamish poyasi qismlari yerga qavariq tomoni yuqoriga qilib qo'yilib ustidan bo'ylamasiga bo'yra toshi ezdirilib, poya yanada kichik qismlarga ajratilgan. Ezilgan qamishdan bo'g'im pardalari, barglari uzunligi 30 sm bo'lgan "*kichik kaltakcho'p*" bilan ikkinchi marta tozalanadi. Ezilib biroz mayinlashgan qamish poyasi yerga to'shalib, ayrim yorilmay qolgan bo'g'imlari bo'yra tosh bilan urib oxirigacha ezib mayinlashtirilgan.

Keyin bo'yрани to'qishga kirishiladi. Bunda to'quvchi dastlab 11 dona qamish poyasini sirtini yuqoriga qilib poyalarni yoyilgan holda yonma-yon tarzda yerga joylashtiradi. Bunda 5 ta qamish poyasi bosh qismi bir tarafga, 6 tasi esa qarama-qarshi holda ya'ni, poya ildiz tomoni bilan joylashtirilishi kerak. So'ng shu qamish poyalari o'rtasidan "*arqov qamish*" poyasini o'tkazish orqali jarayon davom etadi. Arqov qamish o'zak qamish poyalarni dastlab 2 ta poya tepasidan, so'ng 2 ta poya quyidan qilib o'tkazib boriladi.

Keyingi arqov qamish birinchi arqov qamishga qarama-qarshi tarzda o'tkazib to'qish davom ettirilgan. To'qimachilarni bildirishicha arqov qamish bir marta "4 bosar" ya'ni, 4 ta qamish poyasidan o'tkazib, keyin "2 bosar", ya'ni 2 ta poyadan so'ng o'tkazish shaklida to'qib boriladi. 4 bosar arqov qamish o'tkazishda poya bosh qismi bilan o'tkazilsa, 2 bosar arqov qamish poya ildiz tomoni bilan o'tkaziladi. Umuman o'zak poyalarga 13 ta arqov qamish o'tkazib olingach bo'yra bichimi chiqadi. Bo'yraning hajmi 3 metr uzunlikka yetgach, to'shama cheti qayrilib to'qishni yakunlashga kirishilgan. Bundan avval bo'yraga suv sepib mustahkamligi, to'qima egiluvchanligi oshirilgan. So'ng "*bo'yra pichoq*"ga to'qima chetidagi qamish tirab turib qayrilgan, bo'yratosh bilan urib bo'yra cheti chiqariladi. O'tkazilgan dala tadqiqotlari bo'yra to'qish texnologiyasidagi lokal jihatlar Farg'ona vodiysining Sirdaryo bo'yidagi Farg'ona viloyati Dang'ara tumanidagi Quduq, Shopo'lat, Namangan viloyati, Pop

tumanidagi G'aznoq, Beshsari, Mingbuloq tumanidagi Qozoqovul, Nayman kabi bo'yrado'zlik mikro markazlarida yaxshi saqlanganligi aniqlandi.

Sohil bo'yida yashash, qoraqalpoqlarni qirg'oq yaqinidagi daraxt novdalaridan turli buyumlar to'qish hunarmandchiligini ham yuzaga keltirgan. Chunonchi, vodiya qoraqalpoqlar turli savat buyumlarni yuqori sifat bilan to'qishlari orqali ham tanilganlar. Ularni ushbu hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratishlari natijasida, hunarmandchilikning shu sohasiga ixtisoslashuviga olib kelgan [2;18–19-b]. Etnograf olimi S.S. Gubayevaning ta'kidlashicha, vodiya sharqida yuqori mahorat bilan savat to'qishda qashqar lo'lilarining "ayoqchi" etnik guruhi nom qozongan bo'lsada, butun vodiya miqyosida fikr yuritadigan bo'lsak, shubhasiz qoraqalpoqlar bu sohada mahorati eng yuqori hunarmandlar edi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vodiydagi boshqa yarimo'troq etnoslar: qirg'iz, qipchoq, turk, yuz, quramalar xo'jaligida bo'lganidek, qoraqalpoqlarda ham asosiy hunarmandchilik tarmoqlaridan biri to'qimachilik bo'lib kelgan. To'qimachilikda asosiy xom-ashyo qo'y juni va paxta bo'lib, jun urchuq yordamida, paxta esa charx yordamida ip qilib yigirilgan. Paxta ipdan asosan, **o'rmak** dastgohida oddiy qoraqalpoq aholisi ehtiyoji uchun bo'z matosi to'qilgan.

Jun ipdan esa jun to'n ya'ni, chakmon uchun mato to'qilgan. Chakmon qalin, issiq kiyim bo'lib qoraqalpoqlarning asosiy ustki kiyimlaridan bo'lib hisoblangan. Bunday to'ndan ba'zan o'troq o'zbeklar ham ustki kiyim sifatida foydalanganlar. Bundan tashqari, dag'al qilib yigirilgan ipdan qanor qop tikiladigan mato ham to'qilgan.

Vodiy qoraqalpoqlari azaldan turli gilam va palos, ya'ni "olacha" to'qib kelganlar. Chunki o'tmishda ko'chma uylarda istiqomat qilgan bu etnos xo'jaligida ushbu buyumlar muhim o'rin egallab kelgan. Hatto bo'lajak yangi xonadon bekasi bo'lmish kelin sepida ham bu buyumlar bo'lishi shart hisoblangan.

XX asr boshida taniqli etnograf A.Semenov o'zining Turkistondagi gilamdo'zlikni yoritishga qaratilgan maqolasida yozishicha, vodiya gilam uchta uezdada: Qo'qon uyezdining Noygut-qipchoq, Laylak, Qoraqalpoq volostlarida, Andijon uyezdining Oyim, Jalaquduq volostlarida, O'sh uyezdining Xakand volostida istiqomat qilayotgan qirg'iz va qoraqalpoqlar tomonidan tayyorlanishi haqida ma'lumot bergan[11;153–154-b]. Qoraqalpoq gilamlarining o'ziga xosligi ularda qizil, pushti, to'q qizil ranglarning ko'p qo'llanilishi, bir bezak elementining turli ranglarda ko'p bora takrorlanishi, keng gilam kanorasi (kayma), qo'chqorshoh naqshining takrorlanishi bilan ajralib turadi. Qadimiy qoraqalpoq gilamlarida xoch naqshi qo'chqorshoh naqshi bilan tugallanishi xos edi.

Vodiy qoraqalpoqlari Xorazm qoraqalpoqlariga qaraganda katta o'lchamdagi gilamlarni ko'proq to'qiganlar. Kigiz ham qoraqalpoq xonadonida uy sahniga to'shaladigan asosiy palos bo'lib, qoraqalpoqlar turli bezakli kigiz turlarini tayyorlab kelganlar. Kigizda asosan *muyiz*, ya'ni *qo'chqorshoh* naqsh elementidan ko'p foydalanilgan.

Farg'ona vodiysi qoraqalpoqlari xo'jaligida yog'ochdan turli buyumlar yasash hunarmandchiligi ham rivoj topgan edi. Chunonchi, 1897 yilda o'tkazilgan Birinchi Butunrossiya imperiyasi aholisini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Farg'ona vodiysida ro'yxatga olingan 11 ming 56 nafar qoraqalpoqlardan 615 kishi, ya'ni taxminan 5,6 foizi hunarmandchilik bilan kun kechirgan. Jumladan, 1897-yilda Birinchi Butunrossiya imperiyasi tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, turli hunarmandchilik kasblari orqali tirikchilik qilganlarning soni Farg'ona vodiysida ro'yxatga olingan 11560 nafar

qoraqalpoq aholisining qariyb 5,6 foizi, ya'ni 615 kishiga to'g'ri keladi. Ularning asosiy qismi esa yog'ochdan buyum yasash bilan shug'ullangan[10;122–123-b]. Qoraqalpoq duradgorlari xom-ashyo o'rnida qirg'oq bo'yida ko'p o'sadigan *to'rang'il, tut, suvtoldan* ko'proq foydalanishgan. Keyinroq qoraqalpoqlar o'troqlasha boshlagach, yong'oq, tut daraxtlaridan ham buyumlar tayyorlashga o'tganlar. Masalan, mahalliy yog'och navlaridan o'tmishda Sirdaryo bo'yidagi Kenagas, O'ymovut qishloqlarida *beshtik, egar, keli, kelisop, yorg'uchoq, yog'och cho'mich, qoshiq, kosa, tog'ora va qayiq*larni maxsus yog'ochsoz ustalar yasaganligi haqida kekxa kishilar ma'lumot berdilar. Bilamizki, Markaziy Osiyodagi ko'pgina yarimo'troq etnoslar xo'jaligida yog'och buyumlar asosiy o'rinda turgan.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ham vodiy qoraqalpoqlari o'zlarining an'anaviy xo'jalik sohasi – chorvachilik bilan shug'ullanishni xo'jalik shakli sifatida saqlab qolgan edilar. Shuning uchun ularning turmushida yarimo'troq turmush tarzi ehtiyojlarini turli buyumlar bilan ta'minlab kelgan hunarmandchilik sohalari: to'qimachilik, bo'yrado'zlik, yog'och buyumlar yasash muhim o'rin saqlab qolgan. Hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat qoraqalpoqlar balki vodiyning boshqa etnoslari tomonidan ham juda qadrlangan. Hunarmandchilik qoraqalpoqlar hayotidagi muhim o'rnini keyingi davrlarda ham saqlab qolib, bugungi kunda ham an'analar davom ettirilmoqda. Endigi dolzarb masala qurilishda, oziq-ovqatlarni saqlashda ajdodlarimizning ko'p ming yillik tajribalarini ommalashtirishdan iborat. Zero, bugungi zamonaviy turmush tarzimizda otabobolarimizning milliy an'alaridan samarali foydalanishimiz farovon kelajagimiz uchun mustahkam poydevor yaratishimizni ta'minlaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Губаева С.С. Население Ферганской долины. –Т.: Фан, 1991.
2. Губаева С.С. Население Ферганской долины. –Т.: Фан, 1991.
3. Гребенкин А.Д. “Узбеки”. // Русский Туркестан (сборник). выпуск II. – М. 1872.
4. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Pop tumani, Kenagas qishlog'i. 2017 y.
5. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani, Quduq va Oqtepa qishloqlari. 2017 y.; Namangan viloyati, Pop tumani, Kenegas qishlog'i. 2016 y.; Namangan viloyati, Mingbuloq tumani, Momoxon qishlog'i. 2010 y.
6. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani, Quduq qishlog'i. 2018
7. yil.
8. Dala yozuvlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri. 2021 yil.
9. Жданко Т.А. Каракалпаки Хоразмкого оазиса / ТХЭ Т. I. – М.: 1952.
10. Наливкин В.И., Наливкина М. Очерк быта женщины туземного оседлого населения Ферганы. – Казань:1886.
11. Первая Всеобщая перепись населения Российской империи в 1897. Т. 89. – СПб. 1905 г. табл. XXII.
12. Семенов А.А. Ковры Русского Туркестана. Этнографическое обозрение. СПб. 1911.
13. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. –Нукус: 1959.
14. Шаниёзов К.Ш., Исмоилов Х.И. Этнографические очерки материальной культура узбеков. кон. XIX – нач. XX вв. –Т.:1981.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ 5/4 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).